

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 338.2:331.101.262(575.1)**

RASULOV SHAVKAT SHAROF O‘G‘LI

**MILLIY IQTISODIYOTDA ISHCHI KUCHI RESURSLARI
FAOLLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari
nomzodi, professor: X.S.Asatullayev**

Toshkent – 2024

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. MILLIY IQTISODIYOTDA ISHCHI KUCHI RESURLARI FAOLLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	13
1.1. Ishchi kuchi resurslarining iqtisodiy mazmuniga bo'lgan nazariy qarashlar evolyutsiyasi.....	13
1.2. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi kuchi resurslarini shakllantirish mezonlari va o'ziga xos xususiyatlari.....	24
1.3. Ishchi kuchi resurslari faolligini oshirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	36
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	47
II BOB. O'ZBEKISTONDA ISHCHI KUCHI RESURLARINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI.....	49
2.1. O'zbekiston Respublikasida ishchi kuchi resurslari bandligiga qaratilgan davlat bandlik siyosati tahlili.....	49
2.2. Ishchi kuchi resurslarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha bandligining joriy holati tahlili.....	57
2.3. Respublikada ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	68
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	76
III BOB. RESPUBLIKADA ISHCHI KUCHI RESURLARINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASH-TIRISH YO'NALISHLARI.....	80
3.1. Respublikada ishchi kuchi resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.....	80
3.2. Davlatning ishchi kuchi resurslarini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	88
3.3. O'zbekistonda ishchi kuchi resurslari bandligiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar ta'sirini boshqarish jarayonlarini modellashtirish.....	102
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	112
XULOSA.....	115
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	119

KIRISH

Dissertatsiyamavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida global beqarorlik, jumladan, Covid-19 pandemiyasi davrida fojiali oqibatlarni yengish va aholi salomatligini tiklash borasida dunyo mamlakatlari uchun ortiqcha ijtimoiy-iqtisodiy xarajatlarni yuzaga keltirdi. Mazkur salbiy ta'sir 2022-2024-yillarda mehnat resurslariga bo'lgan talab taqchilligi kabi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Jumladan, Xalqaro mehnat tashkilotining "Jahonda bandlik va ijtimoiy himoya istiqbollari: 2023-yilgamo'ljallangan tendensiyalar" nomli hisobotida, joriy yilda global bandlik o'sish darajasi 1,0 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Dunyo bo'ylab ishsizlar soni ko'rsatkichi esa 208 millionga yetishi hamda global ishsizlik darajasi 5,8 foizga ortishi kutilmoqda. Bunday salbiy tendensiyaning kutilishi ko'p jihatdan yuqori daromadli rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchi taklifining qisqarishi bilan bevosita bog'liq¹. Bu o'z navbatida ishchi kuchi resurslariga bo'lgan talabni qondirish bo'yichamavjud kamchilik va muammolar yechimini ishlab chiqish, iqtisodiy o'sish sifati parametrlariga ishchi kuchi resurslarining statistik bog'liqligini aniqlash asosida iqtisodiy-ijtimoiy holatga ta'sirini baholash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Jahondagi global ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik sharoitida milliy iqtisodiyotda ishchi kuchi resurslari faolligini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Aholi soni dinamikasining jamiyat iqtisodiy farovonlik darajasiga ta'siri, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi kuchi resurslarini shakllantirish mezonlarini takomillashtirish, ishchi kuchi resurslari faolligini oshirish, ishchi kuchi resurslari bandligiga qaratilgan davlat bandlik siyosati samaradorligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ishchi kuchi resurslari samarali bandligini ta'minlash, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifga ta'sir etuvchi omillarni baholash, ishchi kuchi resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash, mazkur jarayonlarni modellashtirish

¹ https://www.ilo.org/moscow/news/WCMS_865541/lang--ru/index.htm. Экономический спад может вынудить работников соглашаться на менее качественные рабочие места.

hamda uzoq muddatgamo'ljallangan dasturlarni ishlab chiqishning amaliy jihatlarini tadqiq etish hamda istiqbolda ishchi kuchi resurslarini faolligini oshirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim makroiqtisodiy yo'nalishi sifatida aholining ish bilan bandligini ta'minlash va ishchi kuchi resurslari iqtisodiy faolligini oshirish bo'yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ishchi kuchi resurslarini iqtisodiy faolligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy "...faol" modelini joriy etish, uni aholi muammolarini bevosita hal qilish hamda hududni rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta'minlash", "aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari" asosiy vazifa sifatida belgilangan². Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar jarayonida ishchi kuchi resurslari iqtisodiy faolligini oshirish muammolarini tadqiq etishning dolzarbligi birinchi navbatda, mazkur tushunchaning evolyutsion qarashlari va konseptual yondashuvlarini ham nazariy va amaliy jihatdan yondashish hamda pandemiya davrigacha va undan keyingi real ijtimoiy hayotga bevosita bog'langan holda tadqiq qilishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-iyuldagi 09/23/307/0519-son "O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-noyabrdagi 07/23/366/0854-son "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 11-fevraldagi PF-6277-son "Kam ta'minlangan oilalargamoddiy yordam ko'rsatish

² Lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.